

**MILLIY G‘OYA-MILLATLARARO TOTUVLIK VA  
HAMJIATLIKNI TA’MINLASH OMILI  
НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ – ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ  
МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ И СОЛИДАРНОСТИ.  
THE NATIONAL IDEA IS A FACTOR OF ENSURING  
INTERNATIONAL HARMONY AND SOLIDARITY**

*Norimonova Gulmira Ulug‘bek qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Milliy g‘oya, ma ’naviyat asoslari va*

*huquq ta ’limi yo ‘nalishi talabasi*

*Annotation:* Ushbu maqolada milliy g‘oya, diniy bag‘rikenglik va yagona hisoblangan Vatan tuyg‘usini shakllantirish masalalari haqida so‘z yuritiladi. Milliy g‘oya har bir davlat va jamiyat uchun o‘ziga xos, ahamiyatli va mustahkamlanadigan tamoyillarni belgilaydi. Bugungi kunda milliy g‘oya faqatgina, ichki birdamlikni ta’minalashdagina emas, balki millatlararo totuvlik va hamjihatlikni taminlashda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Milliy g‘oya jamiyatda bir-biriga hurmat, birdamlik va tinchlikni shakllantiradi deb o‘ylayman.

*Аннотация:* В данной статье говорится о национальной идее, религиозной толерантности, формировании единого чувства Родины. Национальная идея определяет конкретные, важные и укрепляющие принципы для каждого государства и общества. Сегодня национальная идея важна не только для обеспечения внутреннего единства, но и для обеспечения международного согласия и солидарности. Я думаю, что национальная идея создает взаимное уважение, единство и мир в обществе.

*Abstract:* This article talks about the national idea, religious tolerance, and the formation of a unified sense of the Motherland. The national idea defines specific, important and strengthening principles for each state and society. Today,

*the national idea is important not only in ensuring internal unity, but also in ensuring international harmony and solidarity. I think that the national idea creates mutual respect, unity and peace in the society.*

**Kalit so‘zlar:** *Bag‘rikenglik, milliy g‘oya, hamjihatlik, totuvlik, jamiyat, davlat, millat, milliy.*

**Ключевые слова:** Толерантность, национальная идея, солидарность, гармония, общество, государство, нация, национальный.

**Key words:** Tolerance, national idea, solidarity, harmony, society, state, nation, national.

**Kirish:** Eng avvalo, Milliy g‘oya- xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuchdir. Milliy g‘oya- bu mamalakatning tarixiy, madaniy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslangan, jamiyatimizni birlashtiradigan va uning kelajagi uchun yo‘l ko‘rsatadigan g‘oyadir. Millatlararo totuvlik va hamjihatlikning ta’milanishi milliy g‘oyaning muhim jihatlaridan biridir. Chunki, bu jamiyatdagi barcha etnik guruhlarning birgalikda, tinchlik va barqarorlikda yashashini ta’minlashga qaratilganligidir. O‘zbekistonda turli millatlar va etnik guruqlar o‘z an’analari va madaniyatlarini saqlab qolgan holda ahllikda yashab kelishmoqda. Milliy g‘oyaning mazmuni va uning amaliyotda qanday shakllanishi jamiyatdagi barcha insonlar orasida birlik va birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu o‘z navbatida, millatlararo hurmat, bag‘rikenglik, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi, albatta. O‘zbekiston Respublikasining “Millatlararo totuvlik” va “Hamjihatlik” tamoyillari, barcha fuqarolarni ularning millatiga, diniga va boshqa ijtimoiy guruqlariga qarab ajratmasdan, aksincha birlashtiradigan asosiy qadriyat sifatida qaraladi.

**Asosiy qism:** Milliy g‘oya- millat uchun hayot masalasi bo‘lib qolmasdan, yosh avlodlarning orzu-istiklari va kelajakdagi imkoniyatlari, manfaatlari, maqsadlarini o‘zida aks ettiradi. Dunyodagi ayrim davlatlar o‘z milliy g‘oyasi va shiorlariga ega. Masalan, o‘zining tarixi, madaniyati, milliy xususiyatlariga ko‘ra bizga yaqin bo‘lgan Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va

Singapur kabi mamlakat xalqlari ana shunday ezgu g‘oya asosida birlashib, rivojlanib kelayotganini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham bugun O‘zbekistonning milliy g‘oyasini ilgari surish payti keldi. Mening fikrimcha, milliy g‘oya barcha maqsad va muddaolarimizning kaliti hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari turmushga faol tatbiq etilmoqda, bu qoidalari O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari millatidan qat’i nazar O‘zbekiston xalqini tashkil etishini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an’analariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishini e’lon qiladi va kofolatlaydi” deya ta’kidlaydi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining Muqaddimasida O‘zbekiston xalqi ushbu Konstitutsiyani, jumladan, “fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minalash maqsadida” qabul qilingani alohida ta’kidlangan.

O‘zbekistonning boyliklari ko‘p, lekin eng katta boylik, eng yuksak qadriyat-jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo totuvlik, do‘slik va hamjihatlikdir. Shu sababli yurtboshimizning 2017-yil 19-mayda “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinadi. Shundan keyin yana O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 15-noyabrda “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinadi. Ushbu farmon orqali jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta’minalash, fuqarolar ongida katta, ko‘p millatli yagona oilaga mansublik tuyg‘usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do‘slik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo’llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 10-fevraldagি Qonuniga asosan, mamlakatimizda 30-iyul “Xalqlar do‘sligi kuni” etib belgilanadi. Bu Qonun orqali hududida 130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari o‘zaro ahllikda istiqomat qiladigan O‘zbekiston jamiyatida xalqlar va davlatlar o‘rtasida

hamjihatlik, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilganligi bilin juda katta ahamiyatga ega.

Har bir g‘oyada bo‘lganidek, milliy g‘oyada ham quyidagi vazifalar mavjud:

- 1.Fuqarolarni uyushtirish;
- 2.Bunyodkorlikka safarbar etish;
- 3.Jamiyatni isloh etishning harakat dasturiga aylanishi;
- 4.Insonlarni g‘oyaviy tarbiyalash;
- 5.Fuqarolarda zararli yot g‘oyalarga qarshi zarur immunitetni shakllantirish;
- 6.Jamiyat a’zolarini yangi yutuqlarga erishishida ma’naviy rag‘batlantirish;
- 7.Turli xalqlar va millatlarni erkin demokratik jamiyat qurish ishlariga safarbar etish, ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot qurishga erishishiga tayyorlash.

Yana bir muhim jihat shundaki, 1991-yil mamlakatimizda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 137 taga yetgan.

Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka rahna soluvchi illat butajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bu kabi zararli g‘oyalar ta’siriga tushgan jamiyat beqarorlik holatiga yuz tutishi aniq va ravshandir. Bugun O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik va dinlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo‘lib kelmoqda.

**Xulosa:** Milliy g‘oya, millatlararo tituvlik va hamjihatlikni ta’minalashda yosh avlodning roli juda muhim. Yoshlar milliy g‘oyani nafaqat o‘z yurti, balki butun dunyo miqyosida ham rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu orqali millatlararo totuvlik, hamjihatlik va jamiyatda tinchlikni ta’minalashga erishishimiz mumkin. Millatlararo totuvlikni ta’minalash uchun biz yoshlar, milliy va diniy farqlarga hurmat bilan yondashoishimiz kerak, hamda ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minalashga harakat qilishimiz lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2.Sh.Mirziyoev.“Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”T.2016;
- 3.<https://yuz.uz>;
- 4.<https://lex.uz>;
- 5.<https://arxiv.uz>;